O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2021 - yil 25 - dekabr 262-8-117-Q/21 Termiz tuman hokimligi

Termiz tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2011 yil 4 apreldagi 101-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Raxmonqulovga:

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun er uchastkasi ajratishni er to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda qabristonlarning ma’muriyati:

Xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

Qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, ob’ektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror “Janub quyoshi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov zimmaciga yuklansin.

Termiz tuman hokimi **Urinov Sh. B.**

Термиз туман ҳокимининг
2021 йил 25 декабрдаги
262-8-117-Q/21-сон қарорига
1-илова

Termiz tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish

bo‘yicha tariflar miqdori (so’m)

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Termiz tuman	Termiz tuman
1.	Go‘rqazish	1 o‘ringa	50.000	50.000
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	Bepul	Bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	Bepul	Bepul
4.	Qabrga va qabrusti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	Bepul	Bepul

*Mahallalarda narxlar tafovut qilishi mumkin, shu sababli ustunlar soni ikkita.